



## FIZIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARDA KASBIY INTEGRATSIYA MODELI

Alqorov Qodir Xolmatovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti. Texnologik ta'lim va tasviriy san'at fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7505313>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 04<sup>th</sup> January 2023

Online: 05<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Kasbiy integratsiya, kasbiy bilim, sub'ektlar.*

### ABSTRACT

*Fizikadan sinfdan tashqari ishlarda tabiiy, ijtimoiy, aniq va maxsus fanlar tizimida kasbiy integratsiya yo'nalishlari shakli va tarkibiy qismlari modeli mazmuni bayon qilinadi.*

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Sinfdan tashqari ishlar o'qituvchiga o'quvchilarining individual qobiliyatlarini yaxshiroq bilishga, ular orasidan fizika faniga qiziquvchi iqtidorli o'quvchilarni aniqlashga va bu qiziqishni rivojlantirishga har tomonlama yo'naltirishga yordam beradi.

Fizika fanidan sinfdan tashqari ishlarga quyidagi talablarni shakllantirishimiz mumkin:


- sinfdan tashqari ishlar, o'quvchilar bilimini chuqurlashtirish va kengaytirish, ularning diqqatini o'quv dasturining asosiy mazmunidan chalg'itmasligi kerak;
- sinfdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qitish va tarbiyaviy ishlarni chambarchas bog'lash zarurati;
- sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quv ishlarining oddiy davomi bo'lmasligi kerak;
- sinfdan tashqari mashg'ulotlar rejalari o'quv mashg'ulotlari rejalalaridan orqada yoki oldinda qolishi mumkin;
- o'quvchilarga o'rganish uchun taklif etilayotgan material ular uchun qulay bo'lishi, ularning yoshi, rivojlanish darajasiga mos kelishi kerak.

Ta'lim tizimida o'quv tarbiya jarayoni yoshlarni o'zaro chambarchas bog'liq kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi, shunga mos holda o'rganiladigan fanlarni tabiiy, ijtimoiy, aniq va maxsuslarga bo'lish mumkin.

Aytilganlar mazkur fanlarni o'qitishda integratsiyaning yangi modellarini izlab topishni taqozo qiladi, chunki ma'lum bir tartibli tizimga tushmagan va ilmiy asoslanmagan o'quv



jarayonida uzilishlar sodir bo'lib, bu o'quvchilarning bilish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ular bilim, ko'nikma va malakalarining to'g'ri shakllanishi hamda rivojlanishiga katta zarar keltiradi. Buni ularning kelajak faoliyatidagi kuzatish tajribalarini qo'yishda, abstrakt g'oyalarni aniq vaziyatdagi zaruriy bilimlarga bog'lashda qiyinchiliklarga duch kelish hollarini kuzatishi bilan izohlash mumkin.




Bu shakllarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega, ayni vaqtda ularni birlashtirib turadigan umumiy jihatlar ham mavjud.

Integratsiyaning yangi modellarini izlab topishning salmoqli iqtisodiy sharti ilmiy-tadqiqot, ta'lim texnologiyalarini moliyalashtirishni diversifikatsiyalash (grantlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan shartnomalar tuzish, ilmiy ishlanmalarni amalga oshirish, ilmiy maslahat, ekspertiza, axborot xizmatlari, loyiha, tashkiliy ishlar, patentlar, litsenziyalashtirishni amalga oshirish va h.k.) hisoblanadi. Bunga budjetdan tashqari mablag'larni safarbar etishning moslashuvchan sxemalaridan foydalanish hisobiga erishiladi.

Shundan kelib chiqib, ta'lim tizimida fanlarni o'qitishni integratsiyalash modelini uch bosqichdagi ketma-ket kattalikdan iborat deb qarash mumkin. Unga: - o'quv materialini bosqichga oid dasturning har bir bo'limi va mavzusini ma'lum yaxlit ketma-ketlikda o'rganish; -har bir bo'limda o'quv materialining yaxlit oddiydan murakkabga tomon barqaror o'sib borishini ta'minlash;

-o'quv materialining mazmuni va mohiyatini mehnat ta'limi yo'nalishiga maksimal darajada mos kelishini boshqarishlar kiradi.

Model maqsadlariga mos holda uning strukturasi quyidagicha ifodalanadi:





Model maqsadlariga mos holda:

**Konsentrik integratsiya**-ta'lim dasturining umumiy o'rganilishi lozim bo'lgan aniq va tabiiy fanlarning soddaroq qonuniyatlari (fizika, ximiya, biologiya, matematika) dan texnologik ta'limidagi murakkabroq masalalarni hal qilishga o'tishni ko'zda tutadi. Bunda tabiiy va aniq fanlardagi materiallarni mehnat ta'limi fanlari materiallarida qayta takrorlanishga yo'l qo'ymaslik muhim hisoblanadi.

**Radial integratsiya** - avvalo fan dasturi bilan aniqlanadigan bir bo'limning hamma mazmuni o'rganishni va xuddi shunday boshqa bo'limni integrativ o'rganishni ko'zda tutadi. Bu asosan aniq va tabiiy fanlarga taalluqli bo'lib, masalan fizikada avval mexanikaning hamma statika kinematik, dinamika bo'limlari, keyin molekular fizika va issiqlik, elektr va hokazolar o'zaro yaxlitlik asosida o'tiladi. Ammo bunda integratsiyaning o'quvchilar bilimlarini rivojlantirish darajasiga mos kelmay qolishi havfi borligini ham unitmaslik lozim.

**Kasbiy integratsiya** - eng muhim, ya'ni tabiiy, aniq hamda ijtimoiy, maxsus fanlarni o'zlashtirish natijalarida kasbiy bilimlarini chuqurroq o'rganishda qo'llash uchun harakatlantiruvchi kuch (stimul) bo'lib xizmat qiladi. Kasbiy integratsiya faqatgina kasbga yo'naltiribgina qolmay shu bilan birga ularning ma'naviy kuch va qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda mehnatga ilmiy ijodiy munosabatda va bo'lishni shakllantirishga imkon beradi.

Bunda ayniqsa didaktik tamoyillar bilan uslubiyat (metodika) ning o'zaro bog'liqligini muvofiq ta'minlash muhim. Bu didaktik tamoyillarga; faollik, nazariya va amaliyotni bir-biri bilan bog'lash, ko'rgazmalilik, tushunarlik, namunalardan foydalanish, didaktik reduksiya, ilmiylik bilimlarni qo'llash va natijalarni mustahkamlashlar kiradi.

O'z navbatida, kasbiy integratsiyada didaktik tamoyil o'qitishning didaktik vositalarini boyitadi va uni amalga oshirish ta'sirini kuchaytiradi. Bunda o'ziga xos bog'lanish mavjud, jumladan didaktik tamoyillar bir xil me'yorda integratsiyaning radial, konsentrik va kasbiy maxsus bosqichlarini birday qamrab oladi va hamma o'quv jarayonlariga butunlay mansub bo'ladi.

Kasbiy integratsiya bunda tanlab harakat qiladi va aniq tabiiy hamda mehnat ta'limi fanlari bazasida maxsus kasbiy yo'nalishdagi bilimlarni doimiy "ko'rgazmali" lik asosida o'rgatishga tayanadi. Chunki uning manbai texnik va texnologik ob'ektlar hisoblanadi. Shu ma'noda kasbiy integratsiyada tadqiqot tavsifidagi ko'rgazmalardan foydalanish, faqat ko'rgazmalilik tamoyillarini boyitibgina qolmay, shu bilan birga tabiiy va maxsus fanlar integratsiyasini tizimlashtirishning ham bosh bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

Kasbiy integratsiyada tadqiqot tavsifidagi ko'rgazmalardan darsda bevosita foydalanish integratsiyalash modelidagi maqsadlarining o'sishi va o'quv mazmunining yaxshi takomillashtirilishi o'z navbatida muqarrar ravishda didaktika bilan uslubiy bog'liqligini takomillashtirishga olib keladi. Bu esa, tabiiy, aniq, ijtimoiy va maxsus fanlaridagi yaxlit mazmun, maqsad va vazifalarni o'zida qamrab olishi bilan bo'lajak mutaxassislarda katta kasbiy ahamiyatga ega muhim texnik-iqtisodiy muammolar va fan yutuqlarining ijtimoiy ahamiyati haqidagi nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarini to'g'ri shakllantirishda muhim hisoblanadi.

Xulosa o'rnida alohida ta'kidlash joizki, modeldagi radial, konsentrik va kasbiy integratsiyani sun'iy tarzda amalga oshirish mumkin emas. Bunda asosiy e'tibor integratsiya sub'ektlari va



jamiyat manfaatlariga qaratilishi lozim. Zero, bunday integratsiyaning maqsadi ham ushbu model sub'ektlari faoliyati samaradorligini oshiradi.

## References:

1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi, 2013 yil 22 yanvar.
2. Karimov I.A. "2013 yilda Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilgi iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor vazifalari bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasi izchil davom ettirish yili bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasi Toshkent oqshomi gazetasining 2014 yil 20 yanvardagi 13-soni, 2-bet.
3. Anoshkina V., Mirqurbonov N.M. O'zbekistonda oliy ta'lim Tahliliy tavsiyanoma №1 (12). UNDP ICT Policy Project, 2009, 2-6-,6.